

**XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O'Rtasidagi munosabatlarning institutsional jihatlarini
rivojlantirish yo'llari**

Yovqochev Sherzod
*O'zsanoatqurilishbank ATB Bosh menejer,
Mustaqil tadqiqotchi*

Milliy iqtisodiyotdagi tuzilmaviy siljishlar va o'zgarishlar singari, mamlakatimizning xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro barqaror hamkorligi doirasida institutsional islohotlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Mazkur islohotlar o'zaro hamkorlikning institutsional muhiti sifat ko'rsatkichlarini yanada yuksaltirishga yo'naltirilgan.

Shu nuqtai nazardan, oldin mavjud bo'lgan institutsional mexanizmlarni yangilash, ularning bir-biri bilan o'zaro yaqinligini kuchaytirish, ular orasida vujudga kelgan bo'shlialarni o'rganish muhim.

Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini institutsional jihatlarini takomillashtirishning ayrim konseptual jihatlarini ishlab chiqishda qator olimlarning ilmiy yondashuvlariga tayanish mumkin.

Djozef Y. Stiglits bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda, huquqiy va institutsional islohotlarni amalga oshirgan holda bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tishi kerakligini ta'kidlagan.⁶³ Uning ilmiy qarashlari negizida, iqtisodiy rivojlanish darajasi past mamlakatlarning kapital bozorni liberallashtirishdagi xavflar va risklar nazarda tutilganligini aytish mumkin.

V.M. Kuznetsov ilmiy ishlarida xalqaro moliya insitutlari moliya resurslaridan samarali foydalanish uchun samaradorlik auditini doimiy olib borish ta'kidlangan.⁶⁴ Shuning uchun ham, loyihibar monitoringi uning samaradorligi bilan bevosita bog'liq hisoblandi.

M.G. Gulaliyev ilmiy tadqiqotlarida xalqaro moliya insitutlari a'zo-mamlakatlar bilan o'zining boshlang'ich hamkorlik xususiyatlarini: 1) mamlakatning qonunchiligi xalqaro moliya institutlari manfaatlariga to'g'ri kelishi; 2) xalqaro moliya institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan qulay muhitning shakllanishi; 3) mamlakatga kiritilayotgan

⁶³ Joseph E. Stiglitz. Globalization and its Discontents. W.W. Norton & Company. New York London. 2002. -C. 140,220.

⁶⁴ Кузнецов В. М. Механизмы повышения эффективности управления займами, предоставляемыми Российской Федерации международными финансовыми организациями : диссертация ... кандидата экономических наук : 08.00.10 / Кузнецов Виталий Михайлович; [Место защиты: Гос. науч.-исслед. ин-т систем. анализа Счёт. палаты РФ].- Москва, 2009.- 104 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-8/1298

investitsiyalar, infratuzilma, resurslar va ishchi kuchi xom ashyo sektorida mujassamlashishi xulosa qilingan.⁶⁵

I.R. Mavlanovning ilmiy ishlarida, institutsional infratuzilma yaxshi rivojlangan mamlakatlarda xorijiy yordamning juda katta samara berishi tahlil etilgan.⁶⁶ Bunda, mamalakatning taraqqiyoti uchun moliya yordami, ijtimoiy indikatorlarning yaxshilanishiga olib kelishi ta'kidlangan.

R.Z. Yuldashev xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan loyihalar samaradorligini oshirishda aynan loyihalar monitoringi lozimligini ta'kidlagan. ⁶⁷ Bu esa, o'z navbatda hamkorlikning ilmiy-texnik institutsional asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning: "... biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo'yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o'rganishimiz lozim. Bu masalani yetti o'lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o'ylab ish olib boradigan davr keldi"⁶⁸, deb ta'kidlagani xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish uchun muhim hisoblandi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar asosida, xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlikning institutsional jihatlarini takomillashtirish islohotlarini ifodalovchi yangi pog'onali model taklif etildi (1-rasmga qarang).


Fikrimizcha, xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlikning institutsional jihatlarini takomillashtirish islohotlari quyidagi uchta guruh yo'nalishlari doirasida o'z aksini topishi lozim:

⁶⁵ Гюльалиев М.Г. Деятельность международных финансовых институтов в условиях глобализации // Вестник экономики, права и социологии, №. 2, 2013,-С.53.

⁶⁶ Мавланов И. Р. "Дипломатия содействия международному развитию", Вестник МГИМО Университета, no. 6, 2011, pp. 107-118.

⁶⁷ Юлдашев Р. З. Повышение эффективности сотрудничества Республики Узбекистан с международными финансовыми институтами: Дис. канд. наук; Экономические науки; 08.00.09 / МИД РУз Университет мировой экономики и дипломатии. –Т.:2004.–132 с.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Т.: «O'zbekiston» NMIU, 2018. – 80 b. (47 va 48-betlar).



1-rasm. Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlikni institutsional jihatlarini takomillashtirishning pog'onali modeli⁶⁹

1. Me'yoriy-huquqiy institutsional jihatlarni takomillashtirish. Mamlakatimizda xalqaro moliya institutlari faoliyatiga oid unifikatsiya etilgan qonun ishlab chiqilmaganligi kuzatildi. Qolaversa, mamlakat tashqi qarzlari cheklar chegarasining eksportga hamda yalpi ichki mahsulotga nisbati hajmining doimiy nazorat va monitoring etilishi qonuniy jihatdan mustahkamlanishi kerak (tashqi qarz/eksport, tashqi qarz/YAIM). Umumiy qabul qilingan xavf chegarasi qarzning asosiy va foiz to'lovi hajmining eksportdagi ulushi qabul qilingan darajadadan oshmasligi lozim.⁷⁰

Bu borada, B.B. Samarxodjayevning ilmiy fikrlariga tayangan holda, avval, xalqaro moliya resurslarini jalb etishga xizmat qiluvchi institutsional birliklarni takomillashtirish

⁶⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷⁰ Бочков Д.В. Внешние экономические связи.- 3-е изд., стер. –М.-Берлин:Директ-Медиа, 2016.–157 с.

lozim deb o'yaymiz.⁷¹ Chunki, A.A. Ananin ta'kidlaganidek, xalqaro moliya institutlari bilan kredit masalalarini huquqiy jihatdan himoya qiluvchi fundamental asoslar kerak.⁷²

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, xalqaro moliya institutlari (shu jumladan, mintaqaviy taraqqiyot banklari) faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat quyidagi bo'limlardan iborat bo'lishi kerak:⁷³

- **Umumiy bo'lim.** Predmet, asosiy tamoyillar, xalqaro moliya munosabatlari tizimi va uning tashkil etuvchilari, va uning umum e'tirof etilgan xalqaro huquq prinsip va normalar bilan ug'unligi; Xalqaro moliya institutlari: Mohiyati va turlari, obyektlari va faoliyatini amalga oshirish turlari; Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasidagi ishtirokchilarning huquqlari: Xalqaro moliya institutlari huquqlari himoyasi, ishtirokchilar faoliyati erkinligi, barqaror va teng shart-sharoitlar; Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro munosabatlar tizimidagi davlat va mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari; Xalqaro moliya institutlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilinishi: mohiyati, turlari va nazorat metodlari, vakolatli organlar; Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasida davlat tashqi qarzlari cheklow chegarasining nazorat qilinishi va monitoring etilishi; Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirish: mohiyati, samaradorlikni oshirish mexanizmlari: loyihalarni ishlab chiqish va ekspertiza o'tkazish jarayonlari va ularni uyg'unlashtirish, loyihalarni amalga oshirilishi nazorati va monitoringi, loyiha doirasida jalg etilgan xodimlarning uzlusiz bilim va malakasini oshirish; Xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlikning shartnomaviy shakllari: mohiyati va turlari, asosiy xususiyatlari va xulosalari, ijro va tugatilishi; Xalqaro moliya institutlari hamkorligi doirasida davlat-xususiy sherikchiligi. Xalqaro moliya institutlari faoliyatini davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

- **Yakuniy qoidalar.** Qoidalarni qo'llash tartibi, normativ aktlarni uyg'unlashtirish;

Qolaversa, mamlakatimiz tashqi qarzlari manbalarini diversifikatsiya qilish, Muqobil moliyalashtirish resurslarini jalg etish maqsadida islom moliyasini nazorat etuvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy-normativ baza shakllantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiyada uning ikki bo'limdan iborat bo'lishi taklif etilgan:

- **Umumiy bo'lim.** Predmet, asosiy tamoyillar va uning umum e'tirof etilgan xalqaro huquq prinsip va normalar bilan ug'unligi, AAOIFI umum e'tirof etilgan standartlari;

⁷¹ Самарходжаев Б.Б. Проблемы правового регулирования отношений по инвестициям в Республике Узбекистан (международно-частноправовой аспект). – Дис... докт. юрид. наук. – Ташкент, 2003. – С. 12.

⁷² Ананин А.А. Правовые основы деятельности международных финансовых институтов в сфере кредитования: дис. кан. Наук; Гражданское право; 12.00.03 / Минюст РУз Ташкентский государственный юридический институт. –Т.: 2011. – С 6.

⁷³ Manba: Лисица В.Н. Правовое регулирование инвестиционных отношений: теория, законодательство и практика применения.–Новосибирск, 2011.– 466с.

Asosiy tushuncha va tamoyillar: islom banking mohiyati, islom moliyalashtrish prinsiplari, faoliyati, shartnomalari; Moliyalashtirish turlari va klassifikasiyalari: musharaka, mudaraba, ijara, istisna, murabaha, suquq; Huquqlar himoyasi: Aynan mazkur bo'lim islom moliyasi asl mohiyati, tabiatni va tamoyillarini ochib berishga xizmat qiladi; Hamkorlik doirasidagi ishtirokchilarning huquqlari: ishtirokchilar faoliyati erkinligi, barqaror va teng shart-sharoitlar.

- **Maxsus bo'lim.** Mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan alohida soha turlari, tashkilotlari, shartnomalari nazoratining ta'minoti va monitoringi; Faoliyatning davlat tomonidan nazorat qilinishi: mohiyati, turlari va nazorat metodlari, vakolatli organlar; Loyihalarni amalga oshirish: mohiyati, samaradorlikni oshirish mexanizmlari, loyihalarni ishlab chiqish va ekspertiza o'tkazish jarayonlari va ularni uyg'unlashtirish, loyihalarni amalga oshirilishi nazorati va monitoringi, loyiha doirasida jalg etilgan xodimlarning uzuksiz bilim va malakasini oshirish; Hamkorlik doirasida davlat-xususiy sherikchiligi: mohiyati, turlari, asosiy tamoyillari, ishtirokchilari; Faoliyatining davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi: mohiyati, asosiy shakllari, ijro, nazorat mexanizmlari; Yakuniy qoidalar: qoidalarni qo'llash tartibi, normativ aktlarni uyg'unlashtirish.

Qolaversa, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, Islom moliyasi (banking) to'g'risidagi huquqiy-normativ bazada alohida masala va printsiplarning belgilanishi (islomiy qimmatli qog'ozlarni (suquq) chiqarish paytida emitent islomiy qimmatli qog'ozlar qiymatining foizlar ko'rinishidagi haq to'lash, shuningdek islomiy qimmatli qog'ozlar bo'yicha kafolatlangan daromad olish huquqiga ega emasligi; islomiy qimmatli qog'ozlarni (suquq) chiqarish va joylashtirish natijasida olingan mablag'lar tamaki, alkogol mahsulotlari, qurollar va o'q-dorilar, qimor o'yinlari, shuningdek, Islom moliyalashtirish printsiplari bo'yicha Kengash qo'shimcha ravishda islomiy qimmatli qog'ozlar emitenti faoliyatiga qo'yiladigan majburiy talablarni belgilash huquqiga ega ekanligi) qonunchilik doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Islom moliyasi (banking) to'g'risidagi huquqiy-normativ bazada mahalliy banklarga islom moliyalashtirish printsiplari talablariga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruhsat berish va uni qonuniy mustahkalash bo'yicha taklifi (jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish; jismoniy va yuridik shaxslarning investitsiya omonatlarini qabul qilish; bankdan qarz olish: islom banki tomonidan zudlik bilan, to'lash sharti bilan va badal olmasdan naqd pulda kreditlar berish) bank xizmatlari turlarini kengaytirishga va qayd etilgan operatsiyalarni litsenziyanishiga hizmat qiladi.

Shu bilan birga, islom moliya qonunchiligi asosida faoliyat olib boruvchi banklar mumkin bo'limgan operatsiyalarini belgilab qo'yilishi (faktoring operatsiyalari: to'lovlarini

amalga oshirmaslik xavfini hisobga olgan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xaridordan to‘lashni talab qilish huquqini olish; forfeyting operatsiyalari (forfeyt): sotuvchiga aylanmasdan veksel sotib olib, tovar (ish, xizmat) xaridorining qarz majburiyatini to‘lash) faoliyat olib boruvchi banklarni nazorat va tartibga solish mumkin bo‘ladi.

2. Tashkiliy-tuzilmaviy institutsional jihatlarni takomillashtirish.

Mamlakatimizning xalqaro moliya institutlari bilan ikki tomonlama manfaatli aloqalari doirasidagi tashkiliy-tuzilmaviy institutsional jihatlarni takomillashtirish, o‘zaro iqtisodiy hamkorlik salohiyatidan to‘laqonli foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bizningcha, tashkiliy-tuzilmaviy jihatlarni takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim:

a) xalqaro moliya institutlari bilan doimiy faoliyat olib boruvchi hukumat qoshida Iqtisodiy konsultativ kengash tashkil etish. Uning asosiy vazifa va maqsadlari: o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan o‘zaro hamkorlik konsepsiyasini ishlab chiqish, mamlakatning yangi sohalari doirasida moliya resurslari taqsimoti masalalarini qayta ko‘rib chiqish, turli rivojlantirish masalalari yuzasidan maslahat guruhlarini tashkil etish va o‘zaro hamkorlik doirasidagi muammolar yechimini topish kabi yo‘nalishlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq. Hamkorlik aloqalarining yangi darajasiga ko‘tarilishida mazkur konsultativ kengashning ko‘p tomonlama dialogi uzluksiz ravishda bo‘lishi lozim;


b) xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalariga oid xalqaro anjumanlar tashkil etish (Davos xalqaro iqtisodiy forumi va boshqalar). Xalqaro tashkilotlar ekspert va olimlari ishtirokida o‘tkaziladigan xalqaro darajadagi forumlar mamlakat transformatsiyalashuvi jarayonida yangi yo‘nalish, mexanizm, va boshqaruv dastaklarini kashf etishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bunday xalqaro darajadagi forum va konferensiylar xalqaro, hukumat, mintaqalari darajasidagi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

3. Ilmiy-texnik institutsional jihatlarni takomillashtirish. O‘zaro hamkorlik doirasida mamlakatning ilmiy-texnik jihatlarini iqtisodiy, institutsional islohotlar yordamida takomillashtirish zamonaviy davrning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda mamlakatda ilmiy-texnik yo‘nalishda xizmat qiluvchi institutsional tuzilma birliklari tashkil etilishi lozim bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, ular quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

a) xalqaro moliya institutlarining mamlakatdagi faoliyatini doimiy ravishda ilmiy-analitik tahlil etilishi shakllantirish. Bunda mamlakatmizdagi ilmiy-analitik tahlil markazlarida yoki xalqaro moliya institutlari bilan faoliyat olib boruvchi hukumatning vakolatli organi (hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va savdo vazirligi hisoblanadi) tasarrufida mazkur yo‘nalishni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ilmiy institutsional jihatlarning mazkur yo‘nalishi ekspert-analitik markazlar ya’ni fikrlar fabrikasi hamkorligida xalqaro ekspertlar, xalqaro moliya tashkilotlari mutaxassislari bilan birgalikda mamlakatdagi iqtisodiy-moliyaviy jarayonlar va muammolarni tahlil etish imkoniyati yaratildi.


Ustuvor yo‘nalishlar va sohalar doirasida prognozlashtirish keng rivojlanadi hamda texnik-konsultativ faoliyat sohasida fundamental va amaliy tadqiqot ishlanmalari uchun yangi shart-sharoitlar yaratadi (2-rasmga qarang);



mechanizmlarini ishlab chiqish va tadbiq etish (3-rasmga qarang).

Xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan moliya resurslarini bir tomonlama emas, balki kompleks holda va bir vaqtning o‘zida tahlil qilishni nazarda tutuvchi yangi usullarni qo‘llagan holda monitoring etish muhim hisoblanadi. Moliya resurslarini monitoring va nazorat etish tadbirlari joriy vaqt va kelgusida yuzaga keladigan risklarni baholashi hamda bir nechta omillarni hisobga olishi zarur.

⁷⁴Manba: Медушевский Н.А. Аналитические центры в политическом процессе: американская модель «Фабрик мысли» и ее функционирование за пределами США // Полития. 2010. –№1 (56). –С.157.



3-rasm. Xalqaro moliya institutlari moliya resurslari monitoringining funksional jihatlari⁷⁵

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro moliya institutlari faoliyati doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, bugungi kunda xalqaro moliya institutlari moliya resurslaridan samarali va oqilona foydalanishda doimiy olib boriladigan zamonaviy analitik tahlil va monitoring uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlik asosida mamlakatimizning istiqboli va taraqqiyotining salohiyati uchun mamlakat iqtisodiyotining

⁷⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

turli sohalarida yangi samarali ish o'rinalarini yaratish; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni yanada oshirish; mamlakatimiz ichki bozorining rivojlanishi hamda Markaziy Osiyo sarhadlarida peshqadamlikka erishish; shu bilan bir qatorda, mamlakat sanoatining yuqori natijalarga erishish maqsad etilgan.

Qolaversa, ikki tomonlama hamkorlik natijasida suv va energetiyadan oqilona foydalanish hamda yuqori samaradorlikka erishish kutiladi, mamlakat infratuzilma ximatlaridan foydalanish imkoniyatlari oshadi, inson kapitalini rivojlantirish uchun ijtimoiy xizmatlar ko'lami kegayadi. Mamlakat davlat korxonalarining korporativ boshqaruvi tizimi yanda rivojlantiriladi, qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligi oshadi, xususiy sektor uchun yangi moliya resurslari taqdim etilishi kabi imkoniyatlar ko'lami kegayadi.

Shu bilan bir qatorda, Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston Respublikasiga ko'rsatayotgan moliyaviy va texnik yordami dunyoda yuzaga kelayotgan turli moliyaviy inqirozlarni oldini olish (Misol uchun, 2007-yildagi Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi), pandemiyalar tufayli yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun (Misol uchun, 2019-yildagi COVID-19 pandemiyasi) singari vaziyatlarda qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi yuqoridagilar jumlasidandir.